“ADOLAT”
MILLIY HUQUQIY AXBOROT MARKAZI
Guvohnoma № 636478
Litsenziya C-5669732

“HUQUQ va BURCH+” —
«ПРАВО и ДОЛГ+» —
"RIGHT and DUTY+"
Journal home page:
https://adolatmarkazi.uz/magazine/electron?id=388

2026-yil
9-son
sentabr
ISSN 3093-8546



# Shartnomalar tizimida onlayn shartnomaning oʻrni, tushunchasi va undan kelib chiqadigan javobgarlik masalalari

*Rustam Ruziyev,*
*Jamoat xavfsizligi universiteti*
*Professor*
*e-mail: nilufar.rustamova.90@mail.ru*

*Nilufar Rustamova,*
*Toshkent shahar Chilonzor tumani 2-sonli FXDY mudirasi*
*yuridik fanlar boʻyicha falsafa doktori (PhD)*
*e-mail: nilufar.rustamova.90@mail.ru*

***Аннотация.*** Mazkur maqolada onlayn shartnomaning huquqiy tabiati, uning an'anaviy fuqarolik-huquqiy shartnomalar tizimidagi oʻrni, elektron oferta va aksept instituti, elektron shaklda tuzilgan shartnomalarning yuridik kuchi hamda ularni bajarmaslik yoki lozim darajada bajarmaslik natijasida kelib chiqadigan fuqarolik-huquqiy javobgarlik masalalari ilmiy-nazariy jihatdan tahlil qilingan. Shuningdek, Oʻzbekiston Respublikasi Fuqarolik kodeksi hamda “Elektron tijorat toʻgʻrisida”gi Qonun normalari asosida amaliy takliflar ishlab chiqilgan. Elektron tijoratda shartnoma munosabatlarini takomillashtirish boʻyicha xulosalar berilgan.Kalit soʻzlar:onlayn shartnoma, elektron shartnoma, elektron tijorat, oferta, aksept, elektron imzo, fuqarolik-huquqiy javobgarlik, raqamli iqtisodiyot.

***Калит сўзлар.*** onlayn shartnoma, elektron shartnoma, elektron tijorat, oferta, aksept, elektron imzo, fuqarolik-huquqiy javobgarlik, raqamli iqtisodiyot.

***Аннотация.*** В данной статье с научно-теоретической точки зрения анализируются правовая природа онлайн-договора, его место в системе традиционных гражданско-правовых договоров, институт электронной оферты и акцепта, юридическая сила договоров, заключенных в электронной форме, а также вопросы гражданско-правовой ответственности, возникающие в результате их неисполнения или ненадлежащего исполнения. Также разработаны практические предложения на основе норм Гражданского кодекса Республики Узбекистан и Закона "Об электронной коммерции." Даны выводы по совершенствованию договорных отношений в электронной коммерции.

***Ключевые слова.*** онлайн-договор, электронный договор, электронная коммерция, оферта, акцепт, электронная подпись, гражданско-правовая ответственность, цифровая экономика.

Guvohnoma № 636478 Litsenziya C-5669732 ISSN 3093-8546

***Annotation.*** This article provides a scientific and theoretical analysis of the legal nature of an online contract, its role in the system of traditional civil law contracts, the institution of electronic offer and acceptance, the legal force of contracts concluded in electronic form, and issues of civil law liability arising from their non-fulfillment or improper fulfillment. Practical proposals have also been developed based on the norms of the Civil Code of the Republic of Uzbekistan and the Law“On Electronic Commerce.”Conclusions are provided on improving contractualrelations in e-commerce.

***Keywords.*** online contract, electronic contract, e-commerce, offer, acceptance, electronic signature, civil liability, digital economy.

Raqamli iqtisodiyotning jadal rivojlanishi natijasida fuqarolik-huquqiy munosabatlarni amalga oshirishda onlayn shartnomalarning ahamiyati tobora ortib bormoqda. Bugungi kunda elektron savdo platformalari, bank xizmatlari, sugʻurta, ta'lim, transport, mehmonxona bron qilish, axborot texnologiyalari va boshqa koʻplab sohalarda shartnomalar elektron shaklda tuzilmoqda.

Onlayn shartnomalarning keng qoʻllanilishi ularning huquqiy tabiatini aniq belgilash, yuridik kuchini ta'minlash hamda shartnoma majburiyatlari buzilganda kelib chiqadigan javobgarlik mexanizmlarini takomillashtirishni talab etadi. Shu nuqtayi nazardan mazkur mavzu fuqarolik huquqining dolzarb masalalaridan biri hisoblanadi. **Onlayn shartnoma tushunchasi va huquqiy tabiati.** Onlayn shartnoma – axborot-kommunikatsiya texnologiyalari vositasida, internet tarmogʻi orqali elektron hujjatlar yoki elektron xabarlar almashish yoʻli bilan tuziladigan fuqarolik huquqiy shartnomadir. Oʻzbekiston Respublikasining "Elektron tijorat toʻgʻrisida"gi Qonuniga muvofiq, elektron tijoratda shartnoma elektron hujjat shaklida rasmiylashtiriladi hamda taraflar shartlarni elektron hujjatlar yoki elektron xabarlar orqali kelishadi. Bunday shartnoma faqat elektron shaklda tuzilganligi sababli haqiqiy emas deb topilishi mumkin emas.

Onlayn shartnomalar quyidagi xususiyatlarga ega boʻlib, *birinchidan*, masofadan turib tuziladi; *ikkinchidan,* elektron identifikatsiya vositalari qoʻllaniladi; *uchinchidan*, elektron oferta va elektron aksept asosida vujudga keladi; *toʻrtinchidan,* elektron hujjat yuridik kuchga ega hisoblanadi; *beshinchidan,* shartnoma ijrosi ham raqamli shaklda amalga oshirilishi mumkin. Bu xususiyatlar onlayn shartnomalarni an'anaviy yozma shartnomalarning zamonaviy koʻrinishi sifatida baholash imkonini beradi.

**Onlayn shartnomaning shartnomalar tizimidagi oʻrni.** Fuqarolik huquqida shartnomalar mulkiy munosabatlarni tartibga soluvchi asosiy huquqiy vosita hisoblanadi. Onlayn shartnoma mustaqil shartnoma turi emas, balki shartnoma tuzishning elektron usuli hisoblanadi.

Guvohnoma № 636478 Litsenziya C-5669732 ISSN 3093-8546

Onlayn shaklda oldi-sotdi shartnomasi, xizmat koʻrsatish shartnomasi, pudrat shartnomasi, litsenziya shartnomasi, bank xizmati shartnomasi, sugʻurta shartnomasi, tashish shartnomasi, raqamli mahsulotlar boʻyicha shartnomalar shartnomalar tuzilishi mumkin. Shu bois onlayn shartnoma an'anaviy shartnoma huquqining ajralmas qismi boʻlib, fuqarolik qonunchiligining umumiy qoidalari unga toʻliq tatbiq etiladi.

Onlayn shartnoma klassik fuqarolik huquqidagi oferta va aksept modeliga asoslanib, elektron ofertada quyidagi ma'lumotlarni oʻz ichiga oladi: 1) sotuvchi haqida ma'lumot; 2) tovar yoki xizmat tavsifi; 3) narxi; 4) toʻlov tartibi; 5) yetkazib berish shartlari; 6) aksept qilish tartibi; 7) shartnomaga oʻzgartish kiritish imkoniyati.

Oʻz navbatida, aksept esa quyidagi shakllarda amalga oshiriladi:
- elektron raqamli imzo bilan tasdiqlash;
- elektron xabar yuborish;
- “Roziman” ("I agree") tugmasini bosish;
- toʻlovni amalga oshirish;
- ofertada nazarda tutilgan harakatni bajarish.

Qonunchilikka koʻra, ofertani yuborgan shaxs akseptni olgan paytdan boshlab shartnoma tuzilgan hisoblanadi. Onlayn shartnoma tuzilgan paytdan boshlab taraflarda huquq hamda majburiyatlar vujudga keladi. Masalan, sotuvchi zimmasiga shartnomaga asosan tovar yoki xizmatni oʻz vaqtida taqdim etish, haqqoniy axborot berish, shaxsiy ma'lumotlarni muhofaza qilish, elektron hujjatlarni saqlash kabi majburiyatlar yuklansa, oʻz navbatida, xaridor ham belgilangan toʻlovni amalga oshirish, shartnoma shartlariga rioya qilish, tovarni qabul qilish singari qator majburiyatlarni bajarishi lozim boʻladi. Ta'kidlash joizki, mazkur huquq va majburiyatlar an'anaviy shartnomalardagi kabi majburiy yuridik kuchga ega hisoblanadi.

Onlayn shartnomalardan kelib chiqadigan javobgarlik masalasiga toʻxtaladigan boʻlsak, aytish mumkinki, onlayn shartnomalar boʻyicha ham umumiy fuqarolik huquqiy javobgarlik qoidalari amal qiladi. Bunda javobgarlik quyidagi holatlarda kelib chiqadi: tovar yetkazib bermaslik, xizmat koʻrsatmaslik, kechiktirib bajarish yoki bajarmaslik, sifat talablariga rioya etmaslik, haqiqiy boʻlmagan ma'lumot taqdim qilish, elektron ma'lumotlarni qonunga xilof qayta ishlash, shaxsiy ma'lumotlarni oshkor qilish va boshqalar.

Bunday hollarda zararni qoplash, neustoyka undirish, shartnomani bekor qilish, shartnomani oʻzgartirish, yetkazilgan ma'naviy zararni qoplash (qonunda nazarda tutilgan hollarda) singari huquqiy oqibatlar qoʻllaniladi. Ta'kidlash kerakki, elektron shaklda tuzilgan shartnoma mazkur javobgarlik choralarini qoʻllashga toʻsqinlik qilmaydi. Shu oʻrinda, onlayn shartnomalar boʻyicha, aniqroq aytganda, ularni amalga oshirishda, xususan, taraflarni identifikatsiya qilish, elektron dalillarni baholash, xalqaro elektron shartnomalar yurisdiksiyasi, shaxsiy ma'lumotlarni muhofaza qilish, sun'iy intellekt ishtirokida tuzilayotgan

shartnomalar huquqiy maqomini va kriptoaktivlar bilan bog‘liq shartnomalarni huquqiy tartibga solishda bir qator muammolar va tushunmovchiliklar uchrab turadi. Ushbu masalalarni hal qilish uchun milliy qonunchilikni xalqaro standartlar bilan uyg‘unlashtirish muhim ahamiyat kasb etadi. Xorijiy tajriba Yevropa ittifoqida elektron shartnomalar eIDAS reglamenti hamda elektron tijorat bo‘yicha huquqiy hujjatlar bilan tartibga solinadi. AQShda esa UETA va E-SIGN Act elektron imzolar hamda elektron shartnomalarning yuridik kuchini kafolatlaydi. Bu tajriba elektron identifikatsiya, elektron dalillar va raqamli xizmatlar bozorini huquqiy jihatdan ta'minlashning samarali mexanizmlarini namoyon etadi.

Onlayn shartnomalar institutini takomillashtirish maqsadida, fikrimizcha, quyidagi taklif va tavsiyalarni ilgari surish o‘rinli:

elektron dalillarni baholashning yagona protsessual standartlarini ishlab chiqish;

onlayn platformalarning shartnomaviy javobgarligini aniq belgilash; iste'molchilar huquqlarini himoya qilishning raqamli mexanizmlarini kuchaytirish;

sun'iy intellekt ishtirokida tuzilgan shartnomalar bo‘yicha alohida huquqiy normalar qabul qilish;

transchegaraviy elektron shartnomalar yurisdiksiyasini takomillashtirish zarur.

Xulosa qilib aytganda, onlayn shartnoma fuqarolik huquqida shartnoma tuzishning zamonaviy elektron shakli bo‘lib, raqamli iqtisodiyotda nafaqat samarali vosita, balki, ayni bir paytda ijtimoiy-iqtisodiy taraqqiyotning muhim huquqiy instituti hisoblanadi. Uning yuridik kuchi milliy qonun hujjatlarimizda to‘liq e'tirof etilgan bo‘lsa-da, raqamli texnologiyalarning tez sur'atlarda rivojlanishi onlayn shartnomalarga oid huquqiy munosabatlarni parallel ravishda yanada takomillashtirib borishni taqozo etadi. Elektron dalillar, elektron identifikatsiya, sun'iy intellekt va transchegaraviy elektron tijorat bilan bog‘liq munosabatlarning aniq huquqiy tartibga solinishi mamlakatimizda raqamli iqtisodiyotni yanada rivojlantirishga xizmat qiladi.

**Foydalanilgan adabiyotlar:**

1.O‘zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasi. Rasmiy nashr. -Toshkent: “O‘zbekiston” nashriyoti, 2023. -80 b.

2.O‘zbekiston Respublikasining Fuqarolik kodeksi. Rasmiy nashr. O‘zbekiston Respublikasi Adliya vazirligi, “Adolat” milliy huquqiy axborot markazi, -T.: 2025-y. -616 b.

3.O‘zbekiston Respublikasining 2022-yil 29-sentyabrdagi “Elektron tijorat to‘g‘risida”gi O‘RQ–792-son Qonuni. QMMB, 14.07. 2026-y., 03/26/1158/0727-son.

4.O‘zbekiston Respublikasining 2004 yil 29 apreldagi “Elektron hujjat aylanishi to‘g‘risida”gi O‘RQ-611-II-son Qonuni. QMMB, 14.07. 2026-y., 03/26/1158/0727-son.

5.O‘zbekiston Respublikasining 2022 yil 12 oktyabrdagi “Elektron raqamli imzo to‘g‘risida”gi O‘RQ-793-son Qonuni. QMMB, 14.07.

Guvohnoma № 636478 Litsenziya C-5669732 ISSN 3093-8546

2026-y., 03/26/1158/0727-son.
6.E-SIGN Act (USA). eIDAS Regulation (European Union).